

**Bahromova Farzona Baxtiyorjon qizi**

**Yunusova Dilnura Umidjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti*

*Biologiya yo'nalishi*

**Anotatsiya:** *Gulxayri o'simligi uning turkum va turlari juda katta ahamiyatga ega. Biz bu o'simlik haqida yozishimizdan maqsadimiz gulxayri inson salomatligi uchun ham foydali. Bu o'simlikdan turli sohalarda foydalanamiz. Xalq tabobatida, mato va boshqa mahsulotlarni bo'yashda ham ishlatamiz. Gulxayri urug'idan ko'payganligi sababli bu o'simlikni yetishtirish va o'stirish oson. Biz shu kabi dorivor o'simliklarni asrashimiz va ko'paytirishimiz kerak.*

**Annotation:** *Gulkhairi plant, its genus and species are very important. We are writing about this plant because it is useful for human health. We use this plant in various fields. We also use it in folk medicine, dyeing cloth and other products. This plant is easy to cultivate and grow as it is propagated from seeds. We need to preserve and multiply such medicinal plants.*

**Kalit so'zlar:** *Malvaceae, aktinomorf, Althaea, A.rosea, Altheae officinalis, malvidin, ekstart, asparagin, betain, pektin, karotin, Altheae midiflora, kleyster*

**Key words:** *Malvaceae, actinomorphy, Althaea, A.rosea, Altheae officinalis, malvidin, extart, asparagin, betaine, pectin, carotene, Altheae midiflora, kleister*

Gulxayridoshlar oilasi – (Malvaceae) vakillari o't, buta va daraxtlardan iborat. O'zbekistonda 6 turkumga mansub 17 turi o'sadi. Barglari oddiy, qirqilgan panjasimon, 3-6-7 bo'lakchali, ikkita yonbargchali. Gullari ikki jinsli, aktinomorf, gulkosacha va gultojbarglari 5 tadan. Urug'chi va changchisi cheksiz, tugunchasi ustki, mevasi ko'p urug'li, ko'sakcha. Bu oilaga mansub gulxayri (Althaea) turkumi bilan tanishib chiqamiz. Yevropa va Osiyoning O'rta mintaqalarida 12turi o'sadi. O'zbekistonda gulning 1 ta ekma va 7 ta yovvoyi turi bor. Gulxayri guli dorivor, manzarali undan bo'yoq olinadi. O'zbekistonda gulxayrining A.rosea turi manzarali va dorivor o'simlik sifatida ko'p ekiladi. Poyasi 1,5-2 m, yo'gon, tuklar bilan qoplangan. Barglari 3-5 bo'lakli, uzun bandli chetlari yirik arra tishli. Dorivor gulxayri(Altheae officinalis)- ko'p yillik, bo'yi 70-150 sm o'simlik. Poyasi tik o'sadi, biroz shoxlangan. Barglari tuxumsimon uchburchak -yuraksimon, ba'zan 3-5 bo'lakli. Iyun-sentabr oylarida gullab, urug' beradi. To'qaylarda va sernam tog'larning pastki qismlarigacha bo'lgan yerlarda o'sadi. Gulxayri qadim zamonlardan beri shifobaxsh o'simlik sifatida ishlatilib kelinadi. Bu dorivor gulxayri (Guli baxmal)dan Ibn Sino yo'talga shishlarga qarshi va qonni to'xtatuvchi vosita sifatida foydalangan. Tojbarglaridan vino, sirka va

boshqalarga rang berishda hamda teri, shoyi va jun kabilarni bo'yashda foydalaniladi. Chunki gulxayri gulbarglari o'zida qizil, zangori hamda binafsharang bera oladigan malvidin pigmentini saqlaydi. Gulxayri ildizidan kleyster tayyorlash, o'simlikning poya va shoxchalaridan a'lo sifatli qog'oz hamda arqonlar tayyorlash mumkin. Bundan tashqari uning ildizidan tayyorlangan suyuq ekstrakt nafas yo'llari kasalliklarida (ayniqsa bolalarda) balg'am ko'chirish, me'da-ichak kasalliklarida esa o'rab oluvchi dori sifatida ishlatiladi. Gulxayri o'simligining tarkibida juda ko'p foydali moddalar bor. Chunonchi, gulxayrining ildizida 35% gacha shilliq moddalar, 37% gacha kraxmal, 16%ga yaqin qand, asparagin, betain, pektin, yog', 4.9% atrofida mineral tuzlar mavjud. O'simlikning barg hamda gullarida 0.02%ga yaqin qattiq efir moyi, karotin, vitamin C, ildizlardagiga qaraganda ikki marta kam shilliq moddalar bor. Dorivor gulxayri asalarilar uchun yaxshi oziq hisoblanadi. Yana bir gulxayri ( *Althae midiflora*) ning guli qaynatilib bolalarning ichi ketganda dori sifatida ishlatiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'. Pratov, L. Shamsuvaliyeva, E. Sulaymonov, X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov Botanika Toshkent-2010

O'. Pratov, Q. Jumayev Yuksak o'simliklar sistematikasi Toshkent-2003

<https://Wikipedia.org>

<https://shifo.uz>